XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 2-iyul VII-10-151-1-0-K/25 Andijon viloyati

Andijon tumani tarkibida yangishaharcha tashkil etish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyeyovning 2025-yil 15-16-aprel kunlari Andijon viloyatiga tashrifi davomida belgilab bergan topshiriqlari boʻyicha tasdiqlangan 21-sonli yigʻilish bayoni 46-bandi ijrosini taʼminlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonuni 6-va 24-moddalari, “Geografik obyektlarning nomlari toʻgʻrisida”gi Qonuni 9-moddasi 1-bandi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4 martdagi 48-sonli qaroriga muvofiq

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 15-16-aprel kunlari Andijon viloyatiga tashrifi davomida bergan topshiriqlari boʻyicha 21-sonli bayonining 48-bandi ijro uchun, mahalla fuqarolar yigʻining iltimosnomasi, Andijon tumani hokimining axboroti va Idoralararo komissiyaning xulosasi asos uchun qabul qilinsin.

2. Andijon viloyati hokimi, Idoralararo komissiya raisi (Sh.Abdurahmanov)ning “Oʻzbekiston Respublikasida maʼmuriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etish tartibi toʻgʻrisida”gi Qonunga muvofiq, Andijon tumani boʻysunuvida yangi shaharcha tashkil etish taklifi maʼqullansin.

3. Xalq deputatlari Andijon tumani Kengashi (B.Yuldashev) ushbu tashkil etiladigan yangi shaharchaga “Bobur” nomi berilishi (mahalliy aholining fikrini ham eʼtiborga olgan holda) tavsiya etilsin.

4. Andijon tumani "Xaqiqat", "Saddatagi", "Otchopar" va "Doʻng qishloq" mahalla fuqarolar yigʻinlarining Andijon tumanidagi 4 ta mahalla fuqarolar yigʻinlari hududlarining bir qismi Andijon tumani hududida " Bobur" shaharchasini tarkibiga oʻtkazishga rozilik berilsin.


5. Andijon tumani hududida " Bobur" shaharchasini maʼmuriy-hududiy chegara chizigʻining kartografik chizmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (X.Omanov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi AXUNOV UKTAMJON
XXX

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2025-yil 2-iyuldagi
VII-10-151-1-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Andijon viloyati Andijon tumanining ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik CHIZMASI



Shartli belgilar

Andijon tumanining chegarasi va yer maydoni

Andijon tumani chegarasining burilish nuqtasi va raqami